

NARPAY TUMANINING KELIB CHIQISHI HAQIDA

I.M.Xaydarov

Ilmiy rahbar, TDSHU, “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi” kafedrası professori

M.R.Murodullayeva

TDSHU, Tarjima nazariyasi va amaliyoti: Fors tili 1-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Narpay tumanining kelib chiqishi, uning lu’gaviy ma’nosi Narpay viloyatining chegaralari va uning hududiy tuzilishi haqida ma’lumot berilgan.

Tumanning urf-odatları, to’y-marosimları va ijtimoiy-iqtisodiy holati haqida ham ma’lumotlar keltirib o’tilgan.

KALIT SO’ZLAR: Narpay, Oqtosh, tuman, markaz, Samarqand, savdo-sotiq, kutubxona, mahalla, Kattaqo’rg’on.

Kirish

Narpay tumani Samarqand viloyatining asosiy qishloq xo’jaligiga ixtisoslashgan hududi bo’lib, uning maydoni 0,44 ming/km² ni tashkil etadi. Tuman 1974-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. U viloyatning janubida joylashgan bo’lib, sharq va g’arbdan Kattaqo’rg’on va Paxtachi tumanlari, shimolda Navoiy viloyatining Xatirchi tumani, Janubdan Nurobod tumani va Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh. Tumanda 2023- yil ma’lumotiga ko’ra 5372 ming kishi istiqomat qiladi. Hududda 1 ta shahar ya’ni Oqtosh shahri, 2 ta shaharcha ya’ni Mirbozor va Islom Shoir shaharchasi va 9 ta mahalla, ya’ni Olti o’g’il mahallasi, Yangirabod mahallasi, Yangiqo’rg’on mahallasi, Qadim Qorako’l mahallasi, Qorasiyroq mahallasi, Xo’jakarson mahallasi, Kosongoron mahallasi va Guliston mahallalari mavjud. Tuman tarixiga nazar solinganda, uning shakllanishi ilk o’rta asrlarga borib taqaladi. Keyinchalik esa arablar bosqini sababli hudud haqidagi ma’lumotlar

yo'qolgan. Dastlab Narpay hududi Fay deb atalgan bo'lib arablar bosqinidan keyin Fay hukmdori Farzanj o'zining yaqinlari bilan hozirgi So'g'd yerlariga o'tgan. Bu ma'lumotlar hozirgi kunga qadar So'g'd yozma manbalarida saqlangan. Mirbozor — Samarqand viloyati Narpay tumanida joylashgan qishloq (shaharcha) bo'lib, 1992-yildan beri shahar maqomiga ega. Samarqand shahridan 106 km uzoqlikda, tuman markazi (Oktosh shahri) dan 6 km shimolda joylashgan va yaqin temir yo'l stansiyasi Zirabuloq (5 km) dir. 2002-yildagi ma'lumotlarga ko'ra, aholisi qariyb 5,3 ming kishini tashkil etgan.

Mirbozor qishlog'i haqida qo'shimcha ma'lumotlar:

Joylashuvi: Samarqand viloyati, Narpay tumani.

Maqomi: 1992-yildan beri shaharcha.

Masofalar: Samarqanddan 106 km, tuman markazidan (Oktosh sh.) 6 km shimolda.

Temir yo'l: Eng yaqin stansiya Zirabuloq (5 km).

Aholisi: 2002-yildagi ma'lumotga ko'ra, ~5,3 ming kishi.

Iqtisodiy faoliyat: Qishloqda avtokorxona, yo'l qurilish idorasi, dehqon bozori va o'rmon xo'jaligi kabi muassasalar mavjud.

Mirbozor Narpay tumanida qadimiy qal'a va qo'rg'onlarning xarobalari va nomlari bugungi kunga qadar saqlanib qolgan hamda ular haqidagi ko'plab afsona va rivoyatlar bor. Bu obektlarning har biri o'ziga xos nomlarga ega. Chunonchi, Mirbozor qo'rg'oni va uning tarixi haqida xalq orasida turli fikrlar mavjud.

Mirbozor— arabcha —mirʼ (amir soʻzining qisqargan shakli¹¹) yoki —miril (amirga xos: xazinaga oid, tegishli; besh tiyinli chaqa, besh tiyin¹²) va forscha —bozorʼ (bozor; savdo rastasi; aholi savdo qiladigan joy¹³) soʻzlarining qoʻshilmasidan paydo boʻlgan boʻlib, amirga tegishli bozor, bosh bozor, markaziy bozor kabi maʼnolarni anglatadi.

Mirbozor bu shu nom bilan ataluvchi bozor va uni qurshab turuvchi qo'rg'on nomi hisoblanadi. Mirbozor qo'rg'onining qachon bunyod bo'lganligi haqida aniq ma'lumot uchramasada, biroq bu qo'rg'onning tarixini qo'rqmasdan ilk o'rta asrlar – V-VII asrlar deb ko'rsatish mumkin. Bunday xulosaga kelishimizga bir necha sabablar bor, albatta. Bunday sabablar ichida eng ishonarli dalil deb shuni ko'rsatishimiz mumkinki, Mirbozor

qo`rg`oni xuddi Zirabuloq qo`rg`oni (Oqtosh shahrining eski nomi) kabi beklilik va hokimlikning ma`muriy markazi hisoblangan va bu qo`rg`onda bekning doimiy askarlari va xizmatkorlari bo`lgan. Qo`rg`on atrofida esa askarlar va xizmatkorlar oilasi yerlari mavjud bo`lgan va yashagan. Qo`rg`on begining xizmatkorlari va askarlarini ilk o`rta asrlarda chokar— xizmatkor, chorakor, malay¹⁴, deb atashgan. Bu haqda tarix kitoblarida esa chokarlarga nisbatan V asrda qishloq va voqa hokimining shaxsiy qo`riqchi va askarlariga nisbatan aytilganligini korish mumkin. Xullasi kalom, Mirbozor qo`rg`onining tiklanish tarixiga qaytar ekanmiz, Mirbozor hududininng g`arbiy qismida hozirgi kunda fonetik hodisaga uchrab, Chaqar nomini olgan katta QFY joylashgan. Yuqoridagi fikirlarga tayangan xolda va hududdagi boshqa saqlanib qolgan nomlarga tayanib shunday xulosaga kelish mumkinki, Mirbozor qo`rg`oni yurtimizga arablar bosqinidan avval ham mavjud bo`lgan, faqatgina avvalgi nomi boshqacha bo`lgan. Shu o`rinda yana shu narsaga etiborni qaratmoq kerakki, Mirbozor SHFY tarkibida Sarbozor nomli mahalla mavjuddir. Sarbozor so`zi fors tilidan olingan bo`lib —bosh bozor<sup>15</sup> degan ma`noni anglatadi. Narpayning eng qadimiy va markaziy qo`rg`onlari orasida yana biri bu Zirabuloq qo`rg`onidir. Zirabuloq¹⁶ atamasi forscha —zira(ziradoshlar oilasiga mansub ko`p yillik xushbuy o`simlik va uning urug`i<sup>15</sup>) va o`zbekcha —buloq(yer ostidan otilib, qaynab chiquvchi suv va shunday suv chiqib turgan joy, chashma.) so`zidan tashkil topgan bo`lib, shu hududda qadimiy buloq bo`lganligi va uning atrofida xushbo`y ziravorlar o`sganligi haqida ma`lumot beradi. Bu joy nomi VII asrlardayoq manbalarda tilga olingan bo`lib, Qoratog` etaklaridagi bu xushmanzara joy va unda o`suvchi ziravorlar hamda shifobaxsh buloq suvlari bilan mashhur bo`lgan. Keyinchalik bu joylar odamlarni o`ziga jalb etib, bu hududda Oqtosh qishlog`i paydo bo`lgan<sup>16</sup>. Zirabuloq qo`rg`oni Buxoro amirligining Zirabuloq bekligining markazi hisoblangan. Zirabuloq qo`rg`onida 1868-yildagi Buxoro va Chor Rossiyasi o`rtasidagi o`zara xal qiluv janglaridan biri va sulh tuzilgan. Hozirgi kunda Zirabuloq nomi temiryo`l stansiyasi nomidagina saqlanib qolingan. Tumanda shuningdek bugungi kuga qadar faqatgina xarobalari, o`rni yoki ma`lum qismi saqlanib qolgan qo`rg`onlar nomi bugunga qadar saqlanib qolgan:

Xo`jaqo`r-g`on (Qadim QFYda joylashgan), Yangiqo`rg`on, Tepaqo`rg`on va Qo`rg`oncha (Yangiqo`rg`on QFYda joylashgan) va boshqalar. Mirbozor shaharchasi nomiga to`xtaladigan bo`lsak, bu nomning ildizi juda qadim tarixga - ilk o`rta asrlarning V-VII asrlariga borib taqaladi. Hududdagi qishloqlar nomlari ham juda qadim tarixga borib taqaladi: Sarbozor, Salovat, Oltio`g`il, Nayman, Oytomg`oli, Totkent, Ravot, Olchin, Tepaqo`rg`on, Zoirota, O`zbekkenti, Ko`kota, Toshko`prik, Xo`jaqo`rg`on, Do`rmon va boshqalar. Narpayning qishloqlari va ularning bunday nomlanishi haqidagi turli afsonalar keng tarqalgan. Narpay toponimlarining ko`pchiligini etnotoponim va antrotoponimlar tashkil qiladi. Hududning jug`rofiy xususiyatlarini aks ettiruvchi nomlarning ko`pchiligini gidronim va oronimlar tashkil qiladi.

2. Mahallalar nomi.

Narpay tumanidagi mahallalar nomlaridan keltirib o`taman. Arabxona, Qozyoqli, Oltio`g`il, Bolg`ali, Nog`oraxona, Mang`it, Oytomg`oli, Maydaqazoq, Qozikent, O`zbekkenti; bir qismini (asosan Oqtosh shahridagi shaharchalar tashkil etadi. Ular quyidagilar: N. O`rinov, Amir Temur, Islom shoir, Alisher Navoiy, Muqimiy, Tinchlik, X. Aliqulov, A. Xaqnazarov, O. Abduraximov, Islomobod, To`xta Roziqov, Zoirota, A. Rasulov nomlarida bo`lgan shaharchalar. Bundan tashqari, Duoba, Yangi-ariq nomlari bor. Samarqand viloyati Narpay tumani – viloyatning g`arbiy qismida joylashgan, boy tarixi, unumdor yerlari va an`anaviy madaniyati bilan ajralib turuvchi hudud. Tuman markazi – Oqtosh shahri. Geografik jihatdan Zarafshon vodiysida joylashgani uning iqtisodiyoti va turmush tarzida qishloq xo`jaligining ustuvorligini belgilaydi. Tuman iqtisodining asosi qishloq xo`jaligi bo`lib, g`allachilik, paxtachilik, sabzavot-poliz ekinlari yetishtirish, bog`dorchilik va chorvachilik keng rivojlangan. Bu sohalar aholini ish bilan ta`minlab, tuman farovonligiga xizmat qiladi. So`nggi yillarda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash sanoati va kichik tadbirkorlik ham rivojlanib bormoqda. Narpay tumani aholisi asosan o`zbek millatiga mansub bo`lgani sababli, uning urf-odatları va madaniyati umumiy o`zbek milliy qadriyatlarini o`zida mujassam etadi. Mahalliy aholi orasida oilaviy qadriyatlar, kattalarga hurmat, qo`ni-qo`shnichilik rishtalari va

mehmondo'stlik yuqori baholanadi. Har bir xonadon o'z eshigini mehmonlarga ochiq tutishga intiladi. Nikoh, beshik to'yi, sunnat to'yi kabi milliy marosimlar qadimiy an'analar asosida, katta shodiyona bilan nishonlanadi. Bu marosimlarda milliy taomlar (ayniqsa, palov, somsa, tandir non), ashula va raqslar alohida o'rin egallaydi. Islom dini an'analari – Hayit bayramlari, ro'za tutish, juma namozlari va boshqa diniy amallar aholi hayotining ajralmas qismidir. Tuman hududida qadimgi hunarmandchilik an'analari (kulolchilik, tikuvchilik, zargarlikning ayrim turlari) saqlanib qolgan. Mahalliy folklor, dostonlar, xalq qo'shiqlari va laparlar ham avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Mahallaning o'rni juda muhim. U aholining o'zaro yordami, ijtimoiy birligi va madaniy tadbirlarni tashkil etishda markaziy rol o'ynaydi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Narpay tumani Samarqand viloyatining qishloq xo'jaligi rivojlangan, boy madaniy merosga ega, aholisi milliy urf-odat va an'analarni asrab-avaylaydigan, mehmondo'st aholi yashaydigan maskanidir. Tuman mintaqa taraqqiyotiga o'zining iqtisodiy salohiyati va madaniy xilma-xilligi bilan hissa qo'shib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/narpay-tumani-geografiyasi-va-tarixi/viewer>
2. Mirbozor (shaharcha) - Vikipediya — Mirbozor (shaharcha) — Toshkent: Vikipediya (elektron manba), 2024.
3. [[https://uz.wikipedia.org/wiki/Mirbozor_\(shaharcha\)](https://uz.wikipedia.org/wiki/Mirbozor_(shaharcha))]
4. Narpay tumani - Vikipediya — Narpay tumani — Toshkent: Vikipediya (elektron manba), 2024.